

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YULDASHEV JAMSHID KAMBARALIEVICH

**PNEVMOMEXANIK YIGIRUV JARAYONIDA RAQOBATBARDOSH IP
OLISH UCHUN TAKOMILLASHTIRILGAN SAMARALI
TEXNOLOGIYANI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 - To'qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan– 2023

**Texnika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора (DSc) технических наук**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Science
(DSc) on Technical Sciences**

Yuldashev Jamshid Kambaralievich Pnevmomexanik yigiruv jarayonida raqobatbardosh ip olish uchun takomillashtirilgan samarali texnologiyani ishlab chiqish.....	3
Юлдашев Жамшид Камбаралиевич Разработка усовершенствованной, эффективной технологии для получения конкурентоспособной пряжи в процессе пневмомеханического прядения.....	29
Yuldashev Jamshid Development of improvements and efficient technologies for obtaining competitive yarns in the rotor spinning process.....	55
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	60

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YULDASHEV JAMSHID KAMBARALIEVICH

**PNEVMOMEXANIK YIGIRUV JARAYONIDA RAQOBATBARDOSH IP
OLISH UCHUN TAKOMILLASHTIRILGAN SAMARALI
TEXNOLOGIYANI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 - To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.DSc/T329 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumaniyazov Qadam

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qayumov Juramirza Abdiramatovich

texnika fanlari doktori, dotsent

Ibragimov Xolnazar Islamovich

texnika fanlari doktori, professor

Abdullayev Ulug‘bek Tulanboyevich

texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.t.66.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil “26” avgust soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-binosi, 2-qavat, 313-xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 547-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “16” avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil “16” avgustdagi № 126-raqamli reyestr bayonnomasi).



R.M. Muradov

R.M.Muradov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

X.T. Bobojanov

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Q.M. Xolikov

Q.M.Xolikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasiga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik yengil sanoat mahsulot ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, ushbu sohada xom ashyolardan oqilona foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to‘liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi. Bu borada, jumladan to‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlari orasida yigirilgan ip ishlab chiqarish jarayonlariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda to‘qimachilik mahsulotlari raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirish, ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, yigirilgan ip ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan bo‘lgan urchuqsiz ip yigirish usullari orasida eng keng tarqalgan usullardan biri pnevmomexanik usul hisoblanib, ushbu usulning texnologik jarayonlarini tadqiq etish va takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda yigirilgan ip ishlab chiqarish jarayonlarida pnevmomexanik yigirish usulidan foydalanish, pnevmomexanik yigirish usuliga oid yangi texnologiyalarni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish hamda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish¹ bo‘yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son “Paxta - to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². To‘qimachilik iplari, jumladan urchuqsiz yigirishning asosiy usullaridan biri bo‘lgan pnevmomexanik yigirish usulida olingan mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek iplarning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va assortimentini kengaytirish bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Kawashima Textile Institute (Yaponiya), Ghent University (Belgiya), State University of North Carolina (AQSh), Donghua University, Taipei University of Technology (Xitoy), Institute of Textile and Design, South Indian Textile Research Association (Hindiston), University of Manchester, Manchester Metropolitan University (Buyuk Britaniya), Istanbul Technical University (Turkiya), Rossiya federatsiyasining N.A.Kosigin nomidagi davlat universiteti, hamda Ivanova to‘qimachilik Akademiyasi va boshqalarda amalga oshirilmoqda.

Pnevmomexanik yigirish mashinalari ishlab chiqaruvchi yetakchi xorijiy injinering kompaniyalari, Zinser, Schlafhorst (Germaniya), Rieter (Shveysariya), Marzoli (Italiya), Lakshmi (Hindiston), Toyota, Murata (Yaponiya), Jingwei (Xitoy) firmalari shuningdek, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat hamda Namangan muhandislik-texnologiya institutlari (O‘zbekiston).

Dunyoda to‘qimachilik sanoati, jumladan yigirilgan ip ishlab chiqarishning pnevmomexanik usullarining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatni yaxshilashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu muammolarni hal qilish, pnevmomexanik yigirish jarayonlari samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan G. Chen, Jiaxin Qiao, Xiaoguang Zhang, Tengteng Shi, Guo Chen, Xiaowen Wu, Yangai Liu, Minghao Fang, Xin Min, K.Lozano, V.E.Ribin, S.N.Xripunov, V.T. Pastuxov va boshqalar.

Mamlakatimizda to‘qimachilik sanoatining pnevmomexanik yigirish usuli va texnologik jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy masalalar hamda metodologik asoslarini yaratish bo‘yicha O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bulardan: Q.J.Jumaniyazov, Q.G‘.G‘ofurov,

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi G. Chen, Jiaxin Qiao, Xiaoguang Zhang, Tengteng Shi, Guo Chen, Xiaowen Wu, Yangai Liu, Minghao Fang, Xin Min, K.Lozano, V.E.Рыбин, S.N.Xripunov, V.T. Pastuxov <https://www.suessen.com>; <http://www.marzoli.com>; www.rieter.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

S.L.Matismailov, A.Jo'raev, A.Dovgan, J.Q.G'ofurov, O.Mirzaev, Sh.A.Qorabaev, O'.Boboev. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida pnevmomexanik yigirish mashinasi texnologik jarayonlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatni oshirida salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, pnevmomexanik yigirish mashinasining diskretlovchi barabanchasi garniturasining kirimlar soni va ularning tezliklar rejimini ta'minlanayotgan tolaga ta'siri, hamda pnevmomexanik yigirish mashinasi chiqindi so'rish quvuri bo'yicha muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pnevmomexanik yigirish texnologik jarayonlarini takomillashtirilgan samarali texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi pnevmomexanik yigiruv jarayonining ishchi qismlarini takomillashtirish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

pnevmomexanik usulda ip yigirish bo'yicha mavjud texnologiyalar va holatlarni tahlil qilish;

takomillashtirilgan diskretlovchi barabancha konstruksiyasini tadqiq etish va ishlab chiqish;

pnevmomexanik yigirish mashinasi chiqindi so'ruvchi quvurining yangi konstruksiyasini yaratish;

pnevmomexanik yigirish mashinasi chiqindi so'ruvchi quvurining yangi konstruksiyasini nazariy tahlil qilish;

takomillashtirilgan diskretlovchi barabanchaning tolani fizik-mexanik xossalriga ta'sirini tadqiq etish;

takomillashtirilgan diskret barabanchalar yordamida ishlab chiqarilgan iplarning sifat ko'rsatkichlarini hamda samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida pnevmomexanik yigirish mashinasining diskretlovchi barabanchasi, ko'p kirimli garnitura o'rash usuli, mashinaning chiqindi so'ruvchi quvuri va unda yigirilgan ip namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini pnevmomexanik iplarning yangi strukturali sifatli iplarini ishlab chiqarishga tayyorlashdagi uslub va vositalar, pnevmomexanik ip tayyorlashning texnologiyalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Nazariy tadqiqotlarda nazariy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, oliy matematika, tolali materiallar texnologiyasi kabi usullaridan foydalanilgan.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pnevmomexanik yigirish mashinasi diskretlovchi barabanchasiga ko'p kirimli garnitura o'rash usulini qo'llab, diskretlash jarayonini jadallashtirish usuli ishlab chiqilgan;

diskretlovchi barabancha garniturasini tishlari bilan tolaning tutib turish shartlarini tahlil qilish asosida garnitura arra tishlarining qiyalik burchaklarini aniqlash tenglamalari olingan;

diskretlovchi barabancha harakat tezligining o'zgarishi, tishning old uchlari yuzasiga nisbatan og'irlik kuchi va markazdan qochma kuchning, ishqalanish koeffitsientiga, arra tishlar tomonidan ushlangan tolalar massasiga bog'liqlik tenglamalari olingan;

diskretlovchi baraban garniturasini arra tishi yuzasidagi tola harakati qonuniyatining analitik ifodasi keltirilib chiqarilgan hamda tolalarning tarangligi va harakat tezligini diskretlash zonasi ortishi bilan tolaning taranglik kuchi va tezligi oshishi aniqlangan;

pnevmomexanik yigirish mashinasi chiqindi so'ruvchi quvurining butun uzunligi bo'ylab havo bosimini bir xilligini ta'minlovchi yangi kesuk konissimon konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

bir, ikki va uch kirimli diskretlovchi barabanchaning yuksiz va ishchi holatdagi aylanishlar tezligining qonuniyatlari olingan;

pnevmomexanik yigirish mashinasi diskretlovchi barabanchasiga bir, ikki va uch kirimli garnitura o'rash usulidan qo'llanilgan hamda ularning tezliklarini optimal parametrlari matematik regression tenglamalar yordamida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

diskretlash zonasida bir vaqtning o'zida joylashgan tolalar sonini aniqlash formulasi, diskretlash zonasida bir vaqtning o'zida bo'ladigan tolalar soniga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan;

tajriba yo'li bilan yangi assortimentdagi pnevmomexanik iplarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlangan;

diskretlovchi barabanchaning yuksiz va ishchi holatdagi rejimlari o'rganilgan;

tavsiya qilingan va amaldagi texnologiyada olingan iplarning solishtirma xossa ko'rsatkichlarini taqqoslash natijasida takomillashtirilgan pnevmomexanik usulda olingan ipning sifati yuqori ekani aniqlangan va ishlab chiqarishga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalarining ishonchliligi eng avvalo, katta hajmdagi tajriba materiallarining statistikasi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning mos kelishi, pnevmomexanik iplarning nazariy va amaliy sifat ko'rsatkichlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Namangan-34 va Buxoro-102 seleksiyalarining I nav yaxshi, hamda I nav yaxshi sinflaridan tuzilgan aralashmadan foydalanib, BD-330 pnevmomexanik yigirish mashinasida diskretlash jarayonini takomillashtirish va samarali chiqindi ajratishning ilmiy asoslangan texnologiyasini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pnevmmomexanik yigirish mashinasining takomillashtirilgan diskretlovchi barabanchasini qo'llab, sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan iplarini ishlab chiqarish bo'yicha qilingan ilmiy natijalari asosida:

pnevmomexanik yigirish mashinasini takomillashtirilgan diskretlovchi barabanchalarini qo‘llab ip olish texnologiyasi “Namangan paxta teks” MChJ klaster korxonasida ishlab chiqarishga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi «O‘ZTO‘QIMACHILIKSANOAT» Uyushmasining 2023 yil 31 maydagi №03/25-1239 sonli ma’lumotnomasi). Natijada ikki kirimli diskretlovchi barabancha aylanishlar chastotasi 6500 min^{-1} bo‘lganda tolali oqimni diskretlash jarayonida tolalarni shikastlanish darajasi kamayishi hisobiga ularning yuqori o‘rtacha tola uzunligini 0,51 mm ga oshishiga va bir xillik indeksining 82,5 % bo‘lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 8 ta halqaro va 5 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhoqamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqolalar, jumladan 11 ta respublika va 6 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 181 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishni aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Pnevmomexanik yigirish usulida olingan iplarning sifatini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida urchuqsiz yigirish usullari orasida katta ulushga ega bo‘lgan pnevmomexanik ip yigirish usulida olingan iplarning sifat ko‘rsatkichlarni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Urchuqsiz ip yigirish texnologik jarayonlari va ularning o‘ziga xosliklari yoritib o‘tilgan. Pnevmomexanik ip yigirish usuli o‘zining unimdorligi, avtomatlashtirilganligi kabi ko‘rsatkichlari bilan urchuqsiz ip yigirish usullari bilan ajralib turishi keltirilgan.

Hozirgi vaqtda yigirish fabrikalarida rivojlangan firmalarning yuqori unimdorlikka ega bo‘lgan pnevmomexanik yigirish mashinalari, ya’ni Rieter (Shveysariya) firmasining R10, R20, R40, R66 Schlafhorst (Germaniya) firmasining BD-330, BD-360, BD -380, Oerlikon (Chexiya) firmasining Autocoro 288, 312, S 360 va 480 kabi zamonaviy jihozlari keng qo‘llanilmoqda. Ma’lumki, bu mashinalarning barchasi ilgari ishlab chiqarilgan modellarga nisbatan bir qator dizayn va texnologik o‘zgarishlarga ega.

Jahonning rivojlangan pnevmomexanik yigirish mashinalari ishlab chiqaruvchi firmalari ishlatilayotgan homashyo turi va ishlab chiqariladigan mahsulotga qarab har xil diskretlovchi barabanlar bilan jihozlanmoqda. Diskret barabanchalari garnituralarining yeyilishga chidamligini oshirish maqsadida ishlov berilgan (olmos yoki nikel) qoplamalar ishlatilmoqda.


Rieter firmasi mashinalarining ishlab chiqarish bo'yicha ma'lumotlari SPINCONTROL CENTER SCC II tizimi orqali jamlab boriladi. Ushbu tizim orqali mashinaning ish unumdorligi, texnik ko'riklar intervali va ish vaqtida yigirish mashinasi qismlarining ishlash jarayoni nazorat qilib boriladi. Mashinaning ishlab chiqarish ma'lumotlari va parametrlarini magnitli diska yoziladi va protokollar shaklida chop etish imkoniyati mavjud.

Dissertatsiyaning «**Pnevmomexanik ip yigirish mashinasi ishchi organlarini takomillashtirish istiqbollari**» deb nomlangan ikkinchi bobida pnevmomexanik yigirish mashinasining takomillashtirilgan diskretlovchi barabanchasini ishlab chiqish, uning turli xil o'lchamdagi arra tishlarining piltaga ta'sirini hisoblash bo'yicha nazariy tadqiqotlar hamda pnevmomexanik yigirish mashinasi chiqindi so'ruvchi quvurining yangi konstruksiyasini yaratish masalalari yoritilgan.

Diskretlash jarayoni va tola tarkibidagi changlarni ajratish samaradorligini oshirish maqsadida, yangi konstruksiyadagi ikki kirimli diskret barabancha yaratildi. Ushbu yangi konstruksiyadagi diskretlovchi barabanchaning ikkinchi kirimining balandligi birinchi kirim garnitura tishlaridan 0,3-0,5 mm ga kam qilib loyihalangan. Shuningdek, alohida tolalarni ilib olish imkoniyatini oshirish maqsadida (paxta tolalari uchun), birinchi kirim garnitura tishlarining qiyalik burchagi 20° , ikkinchi kirim garnitura tishlarning qiyalik burchagi esa 17° qilib tanlab olindi. Yangi konstruksiyadagi diskretlovchi barabancha 1-rasmda keltirilgan: 1-diskretlovchi barabanchani kesimdagi umumiy ko'rinishi; 2- birinchi va ikkinchi kirimlarning garnituralarning konstruktiv elementlari. Diskretlovchi barabancha silindr 1 va uning sirtiga o'rnatilgan ikki kirimli tishli garnitura 2 dan tashkil topgan. Birinchi kirim garnitura tishlari 3 ning balandligi x_1 ikkinchi kirim garnitura tishlarining balandligidan 0,3-0,5 mm ga ko'proq. Shuningdek, birinchi kirim garnitura tishlari 3 ning old qirrasini qiyalik burchagi 20° , hamda ikkinchi kirim garnitura tishlarining old qirrasini qiyalik burchagi 17° qilib olingan.


Tavsiya etilayotgan yangi konstruksiyadagi diskretlovchi barabancha ta'minlanayotgan tolali tutamdan tolalarni ajratib olish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. Ta'minlanayotgan piltaning asosiy ulushi diskretlovchi barabancha 1 garniturasini tishlari 2 ning ishchi zonasiga ta'minlanadi. Diskretlovchi barabanchaning diskretlash samaradorligini oshirish va diskretlash jarayonini bir tekis amalga oshirish uchun diskretlovchi barabancha 1 ikki kirimli ko'rinishda, birinchi kirim garnitura tishlari 3, ikkinchi kirim garnitura tishlari 4 dan balandligidan x_2 ($x_1-x_2=0,3 - 0,5\text{mm}$) ga balandroq qilib tayyorlandi. Kalta tolalarga ta'sir qiluvchi markazdan qochma kuchning kamligi hisobga kalta tolalar ikki kirim garnitura tishlari 4 yordamida diskretlanadi. Katta qiymat qiymatga (yuqori uzunlik va massa) va markazdan qochma kuchga ega bo'lgan tolalar asosan (balandligi yuqori bo'lgan $x_1>x_2$) diskretlovchi barabancha 1 garniturasini tishlari 3 bilan ilib olinadi.

Tavsiya etilgan diskretlovchi qurilma tolali mahsulotlarni diskretlash samaradorligi va bir tekis kechishini ta'minlashga imkon beradi.



1-rasm. Pnevмомеханик yigirish mashinasining diskretlovchi barabanchasi

Ipnig sifat ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish maqsadida, ilmiy farazlar orqali garnituraning arra tishi o'lchamlarini o'zgartirish, ya'ni tishlar qatori bo'yicha balandliklarini turli xil uzunlikda tanlash va tishning og'ish burchagining ratsional qiymatini aniqlash ilmiy ishning asosiy maqsadi qilib qo'yilgan.




Diskretlash samarasiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bu mashinaning konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qayta ishlanadigan tolaning turi, ifloslanish darajasi va boshqalarga qarab arra tishli garnituralarni to'g'ri, ratsional tanlash hisoblanadi.

2-rasm. Turli xil uzunlikdagi arra tishlarini konstruksiyasi

Pnevмомеханик yigirish mashinalarida paxta tolasi iplari uchun qo'yidagi parametrli arra tishli garnituralardan foydalanilmoqda, tish balandligi $h = 1.6 \text{ MM}$, tish qadami $t = 4.5 \text{ MM}$, tish asosining qalinligi $b = 0.9 \text{ MM}$, tishning old qirra qiyalik burchagi $\beta = 66^\circ$. 3-rasmda keltirilgan tavsiya qilinayotgan arra tishli garnituraning parametrlari, tavsiya qilingan va oldingi garnituraning farqi va afzallik tomonlari shundaki, yigirish rotoriga uzluksiz va tekis uzatish sifatli yigirilgan ip olishda garnitura arra tishi balandligining turli xil o'lchamda va tishning og'ish burchaklarini


o'zgartirish ta'minlanayotgan piltaga chuqur kirib borishi shu orqali uzun tolalar va qisqa tolalarni ilib olishda ajratilgan tolalarni ishchi kameragacha bir tekis uzatilishini ta'minlaydi.



3-rasm. Tavsiya qilinayotgan diskretlovchi barabanchaning garnitura arra tishlarini piltaga ta'sir konstruksiyasi (1-ta'minlovchi silindr, 2-pilta, 3-diskretlovchi baraban).

Pnevmomexanik yigirish mashinasi murakkab komplekslar yig'masidan iborat. Uning qismlari va mexanizmlarini bitta tasvirda ifodalash qiyin. So'ngi yillarda yaratilgan mashinalarda esa shunday mexanizm va qurilmalar soni yanada ko'paytirilgan. Mashinalarning takomillashgan modellari yaratilsada, ularning ishlash tartibi saqlanib qolmoqda. Dastlab diskret tolalar oqimi harakatlanish jarayonini ko'rib chiqiladi. Diskretlash jarayonida uzluksiz diskret tolalar oqimi garnituralar ta'sirida hosil qilinadi. Tolalarning harakati garnitura arra tishining old sirti markazdan qochma kuch ta'sirida bir tekisda alohida-alohida parallellashgan va uzluksiz bo'lib, ishchi kameraga tushadi. Tish osti asosi bo'ylab harakatni aniqlashda markazi O nuqtada bo'lgan C massali tola harakati tahlil qilinadi.

Diskretlovchi barabanchaning turli uzunlikdagi arra tishidagi tolalar harakatini arra tishi yuzasidagi holati. Bu holda dekart koordinatalar sistemasi kiritiladi. U holda uchburchaklarda ΔA_1OB_1 va ΔA_2OB_2 sirtlar bo'ylab qisqa va uzun tolalarni boshlang'ich kordinatalar sistemasida 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Tolalarning turli xil uzunlikdagi arra tishi asosidagi dastlabki harakati

4-rasmdan tolalarning dastlabki harakati traektoriya tenglamasini quyidagi tenglikni hosil qilinadi:

$$x_0 = R \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1) + h_1 \cdot \sin \alpha_0$$

$$y_0 = R \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1) + h_1 \cdot \cos \alpha_0$$

va

$$x_0 = R \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1) + h_2 \cdot \sin \alpha_0$$

$$y_0 = R \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1) + h_2 \cdot \cos \alpha_0$$

α_0 va β_0 burchaklar arra tishining qiyalik burchagiga bog'liq holda olinadi:

$$\beta_0 = \frac{\pi}{2} + \varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t - \alpha, \quad \alpha_0 = \alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t$$

Sinuslar teoremasidan foydalanib, quyidagicha tenglik keltirib chiqariladi:

$$\frac{L}{\sin \alpha} = \frac{R}{\sin \alpha_0} \quad \text{bundan} \quad \sin \alpha = \frac{L}{R} \cdot \sin \alpha_0$$

$t > 0$ vaqtda. Agar burchak $\alpha > 0$ bo'lsa, α_0 quyidagicha bo'ladi $\alpha_0 = \alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t$.

Shunday qilib tolalar harakati $S(X, Y)$ bo'yicha aniqlanadi.

$$x_1 = R \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) - h_1 \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \quad (1)$$

$$y_1 = R \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + h_1 \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t)$$

Yuqoridagi ifoda arra tishining uzunligi $h_1 = 1.8 \text{ MM}$ bo'lganda sirt bo'ylab tolalarning harakat traektoriya tenglamasi

$$x_2 = R \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) - h_2 \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \quad (2)$$

$$y_2 = R \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + h_2 \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t)$$

Yuqoridagi ifoda arra tishining uzunligi $h_2 = 1.4 \text{ MM}$ bo'lganda sirt bo'ylab tolalarning harakat traektoriya tenglamasi.

Harakat tenglamalaridan foydalanib, tolaning dekart koordinatalar sistemasi bo'ylab tezligi aniqlanadi. Buning uchun harakat tenglamalaridan vaqt bo'yicha birinchi tartibli hosila olinib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz.

$$\begin{aligned}\dot{x}_1 &= R \cdot \omega \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) - \dot{h}_1 \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - h_1 \cdot \omega \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \\ \dot{y}_1 &= R \cdot \omega \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + \dot{h}_1 \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - h_1 \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \\ \dot{x}_2 &= R \cdot \omega \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) - \dot{h}_2 \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - h_2 \cdot \omega \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \\ \dot{y}_2 &= R \cdot \omega \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + \dot{h}_2 \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - h_2 \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t)\end{aligned}$$

Sistemaning erkinlik darajasi aniqlanadi va umumlashgan koordinatalar tanlab olinib, tolalarga ta'sir etuvchi umumlashgan kuchlar hisoblanadi. Tolalarning kinetik energiyasi umumlashgan koordinatalar va umumlashgan tezliklarning funksiyasi sifatida aniqlanadi. Tolalarning tish osti asosidagi umumiy harakat tenglamasini hosil qilish uchun Lagranjning II-tur tenglamasidan foydalanib, zarur bo'lgan kinetik

energiyasining hosilalari $\frac{\partial T}{\partial \dot{r}_i}$, $\frac{d}{dt}(\frac{\partial T}{\partial \dot{r}})$, $\frac{\partial T}{\partial r_i}$ topiladi. Lagranjning II-tur tenglamasi tuziladi va tenglamani hisoblab, tishning qiyalik burchagi va diskretlovchi barabanchaning aylanish chastotasiga bog'liqligi keltirib chiqariladi.

$$\frac{d}{dt}(\frac{\partial T}{\partial \dot{r}}) - \frac{\partial T}{\partial r} = Q_r \quad (3)$$

Umumlashgan koordinatalar sifatida garnitura arra tishlarining uzunliklarini h_1 va h_2 deb qabul qilinadi.

Bu yerda, $T = \frac{1}{2} m(\dot{x}^2 + \dot{y}^2)$ -kinetik energiya, Q_h —umumlashgan kuch, m – tolalar massasi.

Kinetik energiya aniqlanadi.

$$T_1 = \frac{m}{2} \cdot (\dot{x}_1^2 + \dot{y}_1^2) \quad \text{va} \quad T_2 = \frac{m}{2} \cdot (\dot{x}_2^2 + \dot{y}_2^2) \quad (4)$$

Tolaning dekart koordinatalar sistemasi bo'yicha harakat tenglamalaridan vaqt bo'yicha birinchi tartibli hosila olinib, tolalarning tish osti asosidagi tezliklari hisoblanadi.

$$\begin{aligned}\dot{x}_1^2 &= R^2 \cdot \omega^2 \cdot \sin^2(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + \dot{h}_1^2 \cdot \cos^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + h_1^2 \cdot \omega^2 \cdot \sin^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + \\ &+ 2 \cdot R \cdot \dot{h}_1 \cdot \omega \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + 2 \cdot R \cdot h_1 \cdot \omega^2 \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + \\ &+ 2 \cdot \dot{h}_1 \cdot h_1 \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \\ \dot{y}_1^2 &= R^2 \cdot \omega^2 \cdot \cos^2(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + \dot{h}_1^2 \cdot \sin^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + h_1^2 \cdot \omega^2 \cdot \cos^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + \\ &+ 2 \cdot R \cdot \dot{h}_1 \cdot \omega \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - 2 \cdot R \cdot h_1 \cdot \omega^2 \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - \\ &- 2 \cdot \dot{h}_1 \cdot h_1 \cdot \omega \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t)\end{aligned}$$

$h_1 = 1.8mm$ uzunlikdagi arra tishi sirtida talalarning koordinata o'qlarida tezligi


$$\begin{aligned}\dot{x}_2^2 &= R^2 \cdot \omega^2 \cdot \sin^2(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + \dot{h}_2^2 \cdot \cos^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + h_2^2 \cdot \omega^2 \cdot \sin^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + \\ &+ 2 \cdot R \cdot \dot{h}_2 \cdot \omega \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + 2 \cdot R \cdot h_2 \cdot \omega^2 \cdot \sin(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + \\ &+ 2 \cdot \dot{h}_2 \cdot h_2 \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \\ \dot{y}_2^2 &= R^2 \cdot \omega^2 \cdot \cos^2(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) + \dot{h}_2^2 \cdot \sin^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + h_2^2 \cdot \omega^2 \cdot \cos^2(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) + \\ &+ 2 \cdot R \cdot \dot{h}_2 \cdot \omega \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - 2 \cdot R \cdot h_2 \cdot \omega^2 \cdot \cos(\varphi_0 + \varphi_1 + \omega \cdot t) \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - \\ &- 2 \cdot \dot{h}_2 \cdot h_2 \cdot \omega \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t)\end{aligned}$$

$h_2 = 1.4mm$ uzunlikdagi arra tishi sirtida talalarning koordinata o'qlarida tezligi hosil bo'lgan tenglik (4) tenglamaga qo'yiladi va


$$T_1 = \frac{m}{2} \cdot (\dot{x}_1^2 + \dot{y}_1^2) = \frac{m}{2} \cdot (R^2 \cdot \omega^2 + \dot{h}_1^2 + h_1^2 \cdot \omega^2 - 2 \cdot R \cdot \omega^2 \cdot h_1 \cdot \cos\alpha + 2 \cdot R \cdot \dot{h}_1 \cdot \omega \cdot \sin\alpha)$$

$$T_2 = \frac{m}{2} \cdot (\dot{x}_2^2 + \dot{y}_2^2) = \frac{m}{2} \cdot (R^2 \cdot \omega^2 + \dot{h}_2^2 + h_2^2 \cdot \omega^2 - 2 \cdot R \cdot \omega^2 \cdot h_2 \cdot \cos\alpha + 2 \cdot R \cdot \dot{h}_2 \cdot \omega \cdot \sin\alpha)$$

olinadi.



5-rasm. Diskretlovchi barabanha tishi asosida tolalarning harakati



6-rasm. Q_h umumlashgan kuchlar

Turli xil uzunlikdagi arra tishlari asosida harakatlanayotgan tolalarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar 6-rasmda keltirilgan. Tolalarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar umumlashgan kuch sifatida Q_h -deb qabul qilinib, AB kesmadagi proeksiyalari yig'indisini aniqlanadi.

$$\begin{aligned} Q_h &= mg \sin\alpha_0 \\ Q_h &= fF_k \cos(\alpha - \alpha_0) \\ F_k &= F_{m.k} + F_{uu} = m \cdot \omega^2 \cdot h + f \cdot N \end{aligned} \quad (5)$$

bu yerda, tolalarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar F_k – koriolis kuchi, $F_{m.k}$ – markazdan qochma kuch, F_{uu} – ishqalanish kuchi, N – normal bosim kuchi $F_k = F_{m.k} + F_{uu} = m \cdot \omega^2 \cdot h + f \cdot N$ uning yo'nalishi OA_0 kesmaga perpendikulyar bo'ladi.

$$F_k = 2 \cdot m \cdot \omega \cdot \dot{h} \cdot \cos(\alpha - \alpha_0)$$

bu yerda, ω – tolalarning ko'chirma burchak tezligi, \dot{h} – nisbiy tezligi.

Ushbu bog'lanishlardan Q_h umumlashgan kuchlar uchun

$$Q_h = m \cdot g \cdot \sin\alpha_0 - 2 \cdot \omega \cdot m \cdot \dot{h} \cdot f \cdot \cos(\alpha - \alpha_0)$$

bu yerda, f - tola bilan tish orasidagi ishqalanish koeffitsenti.

Tolalarning T kinetik energiyasidan \dot{h}_i va h_i o'zgaruvchilar bo'yicha murakkab funksiyani differensiyallash qoidasiga ko'ra xususiy hosilalari olinadi, ya'ni

$$\frac{\partial T_1}{\partial \dot{h}_1} = \frac{m}{2} \cdot (2 \cdot \dot{h}_1 + 2 \cdot R \cdot \omega \cdot \sin \alpha) = m \cdot (\dot{h}_1 + R \cdot \omega \cdot \sin \alpha)$$

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T_1}{\partial \dot{h}_1} \right) = \ddot{h}_1 \cdot m, \quad \frac{\partial T_1}{\partial h_1} = \frac{m}{2} \cdot (2 \cdot h_1 \cdot \omega^2 - 2 \cdot R \cdot \omega^2 \cdot \cos \alpha) = m \cdot (h_1 \cdot \omega^2 - R \cdot \omega^2 \cdot \cos \alpha)$$

$$\frac{\partial T_2}{\partial \dot{h}_2} = \frac{m}{2} \cdot (2 \cdot \dot{h}_2 + 2 \cdot R \cdot \omega \cdot \sin \alpha) = m \cdot (\dot{h}_2 + R \cdot \omega \cdot \sin \alpha)$$

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T_2}{\partial \dot{h}_2} \right) = \ddot{h}_2 \cdot m, \quad \frac{\partial T_2}{\partial h_2} = \frac{m}{2} \cdot (2 \cdot h_2 \cdot \omega^2 - 2 \cdot R \cdot \omega^2 \cdot \cos \alpha) = m \cdot (h_2 \cdot \omega^2 - R \cdot \omega^2 \cdot \cos \alpha)$$

Olingan xususiy hosilalarni (2.4) tenglamaga qo'yilib, tenglama harakat tezligiga proporsional bo'lgan qarshilik kuchi ta'siridagi harakat differensial tenglamasi ifodalanadi.

$$m \cdot \ddot{h}_1 - m \cdot \omega^2 \cdot h_1 + m \cdot \omega^2 \cdot R \cdot \cos \alpha = m \cdot g \cdot \sin \alpha_0 - 2 \cdot f \cdot m \cdot \omega \cdot \dot{h}_1 \cdot \cos(\alpha - \alpha_0) \quad (6)$$

$$m \cdot \ddot{h}_1 + 2 \cdot f \cdot \omega \cdot \dot{h}_1 \cdot \cos(\alpha - \alpha_0) = m \cdot g \cdot \sin \alpha_0 + m \cdot \omega^2 \cdot h_1 - m \cdot \omega^2 \cdot R \cdot \cos \alpha \quad (7)$$

Ushbu tenglamaning ikkala tomonini m massasiga bo'lib, bir jinsli bo'lmagan harakat differensial tenglamasining umumiy ko'rinishi aniqlanadi.

$$\ddot{h}_1 + \frac{f \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \alpha_0)}{m} \cdot \dot{h}_1 - \omega^2 \cdot h_1 = g \cdot \sin \alpha_0 - \omega^2 \cdot R \cdot \cos \alpha \quad (8)$$

$$\ddot{h}_1 + \frac{f \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \alpha_0)}{m} \cdot \dot{h}_1 - \omega^2 \cdot h_1 = g \cdot \sin(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t) - \omega^2 \cdot R \cdot \cos(\alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t)$$

va $2 \cdot n = \frac{f \cdot \omega \cdot \cos(\alpha - \alpha_0)}{m}, A_0 = g, B_0 = -R \cdot \omega^2, \mu = \alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t$ belgilashlar kiritilsa

$$\ddot{h}_1 + 2 \cdot n \cdot \dot{h}_1 - \omega^2 \cdot h_1 = A_0 \cdot \sin \mu + B_0 \cdot \cos \mu \quad (9)$$

differensial tenglama hosil bo'ladi. Bu tenglama koeffitsientlari o'zgarmas bo'lgan ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglamadan iborat bo'lib, uning yechimi bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi h_I bilan (9) tenglamaning xususiy yechimi h_{II} larning yig'indisiga teng bo'ladi.

$$h_1 = h_I + h_{II}$$

Tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha ko'rinishda izlanadi:

$$h_1 = C_1 \cdot e^{k_1 t} + C_2 \cdot e^{k_2 t} + A \cdot \sin \mu + B \cdot \cos \mu \quad (10)$$

bu yerda, A va B doimiy o'zgarmas qiymatlar. Bu o'zgarmlarni aniqlash uchun boshlang'ich va chegaraviy shartlardan foydalaniladi. Agar $h_1 = h_0, \dot{h}_1 = 0, t = 0$ bo'lsa,

$$\dot{h}_1 = C_1 \cdot k_1 \cdot e^{k_1 t} + C_2 \cdot k_2 \cdot e^{k_2 t} - A \cdot \omega \cdot \cos \mu + B \cdot \omega \cdot \sin \mu$$

$$\ddot{h}_1 = C_1 \cdot k_1^2 \cdot e^{k_1 t} + C_2 \cdot k_2^2 \cdot e^{k_2 t} - A \cdot \omega^2 \cdot \sin \mu - B \cdot \omega^2 \cdot \cos \mu$$

aniqlangan qiymatlarni (9) tenglamaga qo'yiladi.

$$C_1 \cdot k_1^2 \cdot e^{k_1 t} + C_2 \cdot k_2^2 \cdot e^{k_2 t} + 2 \cdot n \cdot C_1 \cdot k_1 \cdot e^{k_1 t} + 2 \cdot n \cdot C_2 \cdot k_2 \cdot e^{k_2 t} - C_1 \cdot \omega^2 \cdot e^{k_1 t} - C_2 \cdot \omega^2 \cdot e^{k_2 t} = 0$$

$$k_1^2 + 2 \cdot n \cdot k_1 - \omega^2 = 0 \Rightarrow k_{1/2} = -n \pm \sqrt{n^2 + \omega^2}$$

bu yerda k_1 va k_2 o'zgarmas qiymat bo'lib, agar $k > 1$ bo'lsa tolalar arra tishi yuzasidan ajralib chiqishi tezlashadi, $k = 1$ bo'lsa tolalar arra tishi yuzasidan bir

tekisda harakatlanib ajraladi , $k < 1$ bo'lsa tolalar arra tishi bilan birgalikda diskretlovchi barabancha bilan birgalikda harakatlanadi.

$$h_t = A \cdot \sin \mu + B \cdot \cos \mu \quad (11)$$

bu yerda, $\mu = \alpha - \varphi_0 - \varphi_1 - \omega \cdot t$ ga teng

$\dot{h}_t = -A \cdot \omega \cdot \cos \mu + B \cdot \omega \cdot \sin \mu$ $\ddot{h}_t = -A \cdot \omega^2 \cdot \sin \mu - B \cdot \omega^2 \cdot \cos \mu$ aniqlangan qiymatlar (9) tenglamaga qo'yiladi.

$$\begin{aligned} & -A \cdot \omega^2 \cdot \sin \mu - B \cdot \omega^2 \cdot \cos \mu + 2 \cdot n \cdot (-A \cdot \omega \cdot \cos \mu + B \cdot \omega \cdot \sin \mu) - \omega^2 \cdot (A \cdot \sin \mu + B \cdot \cos \mu) = \\ & = A_0 \cdot \sin \mu + B_0 \cdot \cos \mu \end{aligned} \quad (12)$$

(12) bu tenglik o'rinli bo'lishi uchun chap va o'ng tomondagi $\sin \lambda$ va $\cos \lambda$ oldidagi koeffitsientlar o'zaro teng bo'lishi kerak.

$$-A \cdot \omega^2 + 2 \cdot n \cdot \omega \cdot B - \omega^2 \cdot A = A_0 \quad \text{va} \quad -B \cdot \omega^2 - 2 \cdot n \cdot \omega \cdot A - B \cdot \omega^2 = B_0$$

bu tenglamalardan

$$A = \frac{-2 \cdot \omega^2 \cdot (2 \cdot n \cdot \omega \cdot A_0 - 2 \cdot n \cdot B_0) - (4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2) \cdot B_0}{2 \cdot n \cdot \omega \cdot (4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2)}, \quad B = \frac{2 \cdot n \cdot \omega \cdot A_0 - 2 \cdot \omega^2 \cdot B_0}{4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2}$$

munosabat olinadi.

$$h_1 = C_1 \cdot e^{k_1 t} + C_2 \cdot e^{k_2 t} + A \cdot \sin \mu + B \cdot \cos \mu$$

bu yerda, C_1 va C_2 doimiy o'zgarmas qiymatlar. Bu o'zgarmlarni aniqlash uchun boshlang'ich va chegaraviy shartlardan foydalaniladi. Agar $h_1 = h_0$, $\dot{h}_1 = 0$, $t = 0$ bo'lsa,

$$h_0 = C_1 + C_2 + A \cdot \sin \mu_0 + B \cdot \cos \mu_0 \Rightarrow C_1 + C_2 = -A \cdot \sin \mu_0 - B \cdot \cos \mu_0 - h_0$$

$$\dot{h}_1 = C_1 \cdot k_1 + C_2 \cdot k_2 - A \cdot \omega \cdot \sin \mu_0 + B \cdot \omega \cdot \cos \mu_0 \Rightarrow C_1 \cdot k_1 + C_2 \cdot k_2 = A \cdot \omega \cdot \sin \mu_0 - B \cdot \omega \cdot \cos \mu_0$$

Quyidagi belgilash kiritiladi.

$$h_0 = C_1 + C_2 + A \cdot \sin \mu_0 + B \cdot \cos \mu_0 \Rightarrow C_1 + C_2 = -A \cdot \sin \mu_0 - B \cdot \cos \mu_0$$

bu yerda $t = 0$ da $\mu_0 = \alpha - \varphi_0 - \varphi_1$ bo'ladi. Bunda $N_1 = -A \cdot \sin \mu_0 - B \cdot \cos \mu_0 - h_0$

$N_2 = A \cdot \omega \cdot \sin \mu_0 - B \cdot \omega \cdot \cos \mu_0$ belgilash kiritiladi va xususiy yechimni aniqlash uchun C_1 va C_2 doimiy o'zgarmas qiymatlar quyidagicha aniqlanadi.

$$C_1 = \frac{N_1 \cdot k_2 - N_2}{k_2 - k_1}, \quad C_2 = \frac{N_1 \cdot k_1 - N_2}{k_1 - k_2}$$

Barcha aniqlangan o'zgarmlar qiymatlar umumiy tenglamaga qo'yilib harakat tenglamasining umumiy yechimi aniqlanadi. Xuddi shu ketma ketlik bo'yicha diskretlovchi barabancha arra tishining uzunligi $h_2 = 1.4 \text{ mm}$ dagi tolalarning arra tishi sirtidagi harakat traektoriya tenglamasini hosil qilamiz. Garnitura arra tishlarining turli xil uzunlikda bo'lishi asosan uzun va qisqa tolalarni yigirish kamerasiga bir tekisda va uzluksiz uzatishni ta'minlashda xizmat qiladi va shu orqali iplardagi uzilishlar sonini kamayishini oldini oladi

$$\begin{aligned} h_1 = & \frac{N_1 \cdot k_2 - N_2}{k_2 - k_1} \cdot e^{k_1 t} + \frac{N_1 \cdot k_1 - N_2}{k_1 - k_2} \cdot e^{k_2 t} - \frac{2 \cdot \omega^2 \cdot (2 \cdot n \cdot \omega \cdot A_0 - 2 \cdot n \cdot B_0) + (4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2) \cdot B_0}{2 \cdot n \cdot \omega \cdot (4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2)} \cdot \sin \mu + \\ & + \frac{2 \cdot n \cdot \omega \cdot A_0 - 2 \cdot \omega^2 \cdot B_0}{4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2} \cdot \cos \mu \end{aligned} \quad (13)$$

Ushbu (13) tolalarning turli xil uzunlikdagi arra tishlari asosidagi harakatining tishlarning turli xil balandliklariga, diskretlovchi barabanchaning aylanish chastotasi va chiziqli tezligiga bog‘liq tenglamasi keltirib chiqarildi. Bu tenglamadan tolalarni ishchi kameraga bir tekisda uzatish maqsadida tavsiya qilinayotgan parametrlarning optimal qiymatlarini aniqlashda pnevmomexanik yigirish mashinasi diskretlovchi barabanchasining aylanish chastotasini $n_1 = 7500 \text{ муН}^{-1}$; $n_2 = 8500 \text{ муН}^{-1}$; $n_3 = 9500 \text{ муН}^{-1}$ qiymatlarda, tishlarning balandliklarini $h_{1.I} = 1.6 \text{ мм}$; $h_{1.II} = 1.8 \text{ мм}$; $h_{1.III} = 2 \text{ мм}$ va $h_{2.I} = 1.2 \text{ мм}$; $h_{2.II} = 1.4 \text{ мм}$; $h_{2.III} = 1.6 \text{ мм}$ qiymatlari va tolalarning chiziqli tezliklari $v_1 = 30 \frac{\text{м}}{\text{с}}$, $v_2 = 35 \frac{\text{м}}{\text{с}}$, $v_3 = 40 \frac{\text{м}}{\text{с}}$ qiymatlarda tolalarning harakati tahlil qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tolalarning harakatini ishchi kameraga bir tekisda alohida-alohida uzluksiz uzatishda tishlarning uzunliklari, chiziqli tezligi, aylanish chastotalari muhim ahamiyatga ega ekanligi qo‘rinib turibdi. Bir xilda uzatish yuqori sifatli ip ishlab chiqarish shartlaridan biri ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari piltani tolalarga ajratishdan toki ishchi kameragacha bo‘lgan $\bar{S} = 38 \text{ мм}$ masofani $t = 3 \cdot 10^{-4} \text{ с}$ vaqtda ishchi kameraga uzatilishi, tishning balandliklari $h_1 = 1.8 \text{ мм}$ va $h_2 = 1.4 \text{ мм}$ ekanligi hisoblab chiqildi va bu grafiklarda o‘z tasdig‘ini topdi. Natijada iplarning shikastlanishi kamayib, ipning uzish kuchiga ta’sir qilishi aniqlanadi.

Diskretlovchi barabanchasining ishchi kamerasidagi tolalar oqimini o‘rganishda parametrlar turli xil qiymatlarda tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Pnevmomexanik ip yigirish texnologik parametrlarining ip xossalariga ta’siri tadqiqoti**» deb nomlangan uchinchi bobida pnevmomexanik yigirish mashinasi garnaturalari tishlari bilan tola ta’siri va diskretlovchi barabanchaning tezliklar rejimi bo‘yicha bajarilgan ishlar keltirilgan.


Yigirish mashinalari diskretlash qurilmalari ustida bir qator eksperimental tadqiqotlar o‘tkazilgan. Biroq, kompleks tolalarga bir, ikki va uch kirimli diskretlovchi barabanchalar va ularni tezliklar rejimini muqobillashtirish va asoslash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Shuni ta’kidlash lozimki, oldin o‘tkazilgan tadqiqotlarda diskretlovchi barabanchaning yuksiz holatlarida uning tezliklari o‘zgarimas deb qabul qilingan.

Shuning uchun eksperimental tadqiqotlarimiz quyidagilarni aniqlashga qaratilgan:

- diskretlovchi barabanchaning har xil rejimlari bo‘yicha harakatlanish qonuniyatlarini;
- diskretlovchi barabanchaning harakat tezligi rejimlarini turli kirimlar sonida taqqoslash;
- bir, ikki va uch kirimli diskretlovchi barabanchalarning yuklanishini o‘rganish.

Yuqoridagi qo‘yilgan tadqiqot muammolarini hal qilish uchun tajriba o‘tkazish metodikasini ishlab chiqdik. Diskretlash barabanining tezligini oshirish diskretlash samaradorligining oshishiga olib keladi. Lekin, shu bilan birga tezlikning o‘zgarishi tola ajratish jarayonida tolaning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi

mumkin. Bundan tashqari, unumdorlik ortishi bilan diskretlash barabanining yuklanishi ma'lum darajada ortadi.



a

b

7-rasm diskretlash barabani yuklanish darajasini o'rganuvchi qurilmaning umumiy ko'rinishi

a- old tomondan ko'rinishi, b- yon tomondan ko'rinishi

Tajriba ishlarini olib borishda diskret barabanchasining turli tezlik rejimlarini o'rganish va aniqlash uchun optik datchikdan foydalanildi.

Diskretlovchi barabancha tezligi bo'yicha o'zgarishlarini elektron shaklda qayd qilib boruvchi maxsus dastur ishlab chiqildi. Diskretlash barabanchasining tolalar bilan o'zaro ta'sir rejimlarini o'rganish uchun TTESI "Yigirish texnologiyasi" kafedrasining o'quv-ishlab chiqarish laboratoriyasida o'rnatilgan maxsus stend ishlab chiqildi. Ushbu qurilmaning umumiy ko'rinishi 7-rasmda keltirilgan. Qurilma tarkibiga elektrodvigatel, yetaklovchi va yetaklanuvchi shkiqlar, harakat uzatuvchi tasma, diskret barabanchasi, harakat uzatuvchi tasmadan harakat oluvchi val kiradi.

Eksperimental tadqiqotlar natijalar bir, ikki va uch kirimli yuksiz diskretlash barabanchalarining 3600 min^{-1} aylanishlar chastotasida o'zgarish qonuniyatlari keltirilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar tahlillari shuni ko'rsatdiki, yuksiz holatdagi bir, ikki va uch kirimli diskretlovchi barabanchalarning aylanishlar chastotasi o'zgarishsiz qoldi, ya'ni 3600 min^{-1} . Bir, ikki va uch kirimli diskretlovchi barabanchalar ishchi holatga keltirilganda (pilta bilan ta'minlanganda) ularning aylanishlar chastotalari kamayishi kuzatildi. Bir kirimli diskretlovchi barabanchaning aylanishlar chastotasi o'rtacha $24 \div 32 \text{ min}^{-1}$ ga, ikki kirimli diskretlovchi barabanchaning aylanishlar chastotasi esa o'rtacha $53 \div 79 \text{ min}^{-1}$ ga va uch kirimli diskretlovchi barabanchaning aylanishlar chastotasi esa o'rtacha $67 \div 220 \text{ min}^{-1}$ ga kamayishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi "**Takomillashtirilgan diskretlovchi barabancha tola sifat ko'rsatkichlarinazariy va amaliy tadqiqotlar asosida tahlil etish**" nomli bobida o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar asosida, diskretlash jarayonining tolaning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri, diskret barabancha kirimlar sonini uning tishi bilan ilib olandigan tolalar soniga ta'siri va diskretlovchi barabancha kirimlar soni va tezliklarining yigirish kameradan olingan paxta tolasining fizik-mexanik xossalari tahlillari keltirilgan.

